

ANALYSIS OF IRRIGATION SITE OF IRRIGATED LAND OF MARHAMAT DISTRICT, ANDIZHAN REGION

Sirochov Abdumutalib Mukumjon o'glu

Is a graduate student of Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology?

Iminov Ilhomjon Khalimjon o'glu

Is a graduate student of Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology?

Annotation. This article examines and analyzes the reclamation status of land used in irrigated agriculture in Marhamat district.

Keywords. Reclamation condition, collector drains, observation wells.

ANDIJON VILOYATI MARHAMAT TUMANI SUG'ORILADIGAN YERLARINI MELIORATIV HOLATI TAHLILI.

Sirochov Abdumutalib Muqumjon o'g'li

Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti magistranti.

Iminov Ilxomjon Xalimjon o'g'li

Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti magistranti.

Annotsatsiya. Ushbu maqolada Marhamat tumanining sug'orib dehqonchilikda foydalanilgan yer maydonlarining meliorativ holati o'rganilib tahlil qilindi.

Kalit so'zlar. Meliorativ holati, kollektor drenajlar, kuzatuv quduqlari

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bevosita hayotiy faktorlarga- suv, havo, ozuqa, yorug'lik va issilikga muhtoj bo'ladi. Ushbu faktorlar optimal darajada bo'lsa, biz ekilgan ekindan ko'zda tutilgan hosilni olishimiz mumkin. Hozirda sug'oriladigan yerlardan olinadigan maxsulotlar umumiy qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan maxsulotlarning 95% ini tashkil qiladi. Shuning uchun sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, unumdorligini oshirib borish, xar bir gektar yerdan kafolatlangan yuqori sifatli arzon muhsulot olish muhim muammo bo'lib qolmoqda. Bu muammolarni ijobiy hal qilishda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Bu borada Respublikamizda 2020-2030 yillarda aholining va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlash, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlarini hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo'jaligi obyektlarining ishonchli ishlashini ta'minlash hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida bosqichma bosqich ishlar amalga oshirilmoqda.[1]

Shu jumladan Andijon viloyati Marhamat tumanida amalga oshirilayotgan meliorativ tadbirlar ko'zdan kechirilganda jami sug'oriladigan yer maydoni 17042 gektarni tashkil etib, tuproqlarning meliorativ holatiga hamda suv tuz balansiga ijobiy etibor qaratilgan. Sug'orish rejimiga amal qilmaslik va sug'orish tarmoqlari texnik holati qonqarsizligi oqibatida sizot suvlari satxi keskin ko'tarila boshlaydi. Shu sababdan tumanda 35 ta suv chiqarish quduqlari mavjud bo'lib suv sarfi soniyasiga 1087,8 litr m³ ni tashkil qiladi. [2]

Hamda 89 ta zax qochirish tarmoqlari umumiy uzunligi 259.32 km bolib suv sarfi soniyasiga 13,668 litr m³ va xizmat ko'rsatish maydoni 10499 gektarni tashkil qiladi. 2021 yil yakuniga ko'ra tumanda kuchli sho'rlangan tuproqlar mavjud emas lekin tuproqning unumdorligi bo'yicha ball boniteti 40 va 70 ball oralig'ini tashkil etadi. [3]

Qishloq xo'jaligi sohasida dehqon mehnatining samarasi va hosildorlik ko'p jihatdan irrigatsiya tarmoqlari aholi va yerning meliorativ holatiga bog'liq. Shu jumladan Marhamat tumanida kollektor va drenaj tizimlarini tiklash borasida olib borilgan keng ko'lamli ishlar natijasida tumanda jami ochiq kollektor drenaj tarmoqlari 608.6 km va yopiq gorizontol drenajlar 35,96 km ni tashkil qiladi. [4]

Kollektorlardagi suvni ushlab qolish suvdan unumli foydalanish va sug'oriladigan yerlarga to'g'ri taqsimlash borasida jami 455 ta gidrotexnik inshootlar ko'p yillardan buyon xizmat ko'rsatib kelmoqda. Shu tariqa tumanda paxtachilik, g'allachilik va boshqa ekinlarni hosilida sezilarli darajada o'sishga erishilgan. [5]

Yuqorida takidlab o'tganimizdek tuproq unumdorligiga bevosita tasir o'tkazuvchi yer osti suvlarining ahamiyati kattaligi sababdan, Marhamat tumanida sizot suvlari sathini o'lchash va kuzatish maqsadida 188 ta kuzatuv quduqlari mavjud bo'lib, xizmat ko'rsatib kelmoqda. Tumanda xo'jaliklararo ichki zovur tarmoqlarining uzunligi 411 km bolib sizot suvi sathini normal holatda ushlab turish tuproqlarni sho'rlanishini oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda tumanda suv tejovchi texnologiyalarni qollashda ham jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan tumanning 1100 gektar yeriga tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etib kelgusi 2022 yilga 1400 gektar ekin maydoniga tomchilatib, 400 gektar ekin maydoniga yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini qo'llash ko'zda tutilgan. [6]

Xulosa va natija:

Xulosa qilib aytganda tumandagi yerlarda olib borilayotgan meliorativ tadbirlar ijobiy tarzda amalga oshirilmoqda. Shuni qo'shimcha qilib aytish lozimki meliorativ tadbirlarni amalga oshirishda meliorativ texnikalarning ahamiyati katta. Shu sababdan bugungi kunda yuqori ish unumdorligiga ega bo'gan zamonaviy meliorativ texnikalar mavjud. Ushbu texnikalardan tumandagi yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda foydalanilsa sizot suvi sathini yanada yashilash va tuproqlarning unumdorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SHavkat Mirziyoev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" Toshkent – "O'zbekiston"-2021.
2. Xamidov M. X., Shukrulayev X. I., Mamataliyev A. B. Qishloq xo'jaligi gidrotexnikasi melioratsiyasi. Darslik.-Toshkent: Sharq, 2009.-380 bet.
3. Abdullayev S. A., Nomozov X. Q. Tuproq melioratsiyasi. Darslik.-Toshkent:2011.-399 bet.
4. U. Norqulov, X. Allanov "Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi" Toshkent-2016.
5. Axmedov X.A. Zax qochirish melioratsiyasi. T., "O'qituvchi", 19759..Baraev F.A., Serikbaev B.S., Bazarov R.X., SHaymanov N.O. Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish. Toshkent. TIMI. 2012y.
6. .Baraev F.A., Serikbaev B.S. i drugie. Ekspluatatsiya gidromeliorativnyx sistem. Uchebnik Tashkent. TIMI – 2013g